



**ASOSIY PSIXOPATOLOGIK SIMPTOMLARDAN BIRI SIFATIDA
IDROK BUZILISHLARI**

ATVMU, Maxsus pedagogika 1-bosqich talabasi

B.S. Jamolova

Ilmiy rahbar

v.b.dotsent

Z.B. Xosilova

Annotatsiya: Mazkur mavzuda psixopatologiyaning muhim yo‘nalishlaridan biri bo‘lgan idrok buzilishlari yoritiladi. Unda idrok tushunchasi, uning inson ruhiy faoliyatidagi o‘rni hamda idrok jarayonining buzilishi natijasida yuzaga keladigan psixopatologik holatlar tahlil qilinadi. Shuningdek, illyuziya, gallyutsinatsiya, derealizatsiya kabi idrok buzilishlarining turlari, ularning klinik belgilari va namoyon bo‘lish xususiyatlari haqida ma’lumot beriladi. Mavzu orqali idrok buzilishlarining shaxs psixik faoliyatiga ta’siri hamda ularni aniqlashning ahamiyati ochib beriladi.

Kalit so‘zlar: psixopatologiya, idrok, gallyutsinatsiya, illyuziya, sezgi, ruhiy kasallik, derealizatsiya.

Kirish. Psixiatriya va patopsixologiyada idrok etish (persepsiya) inson psixik faoliyatining muhim va murakkab jarayonlaridan biri sifatida e’tirof etiladi. Idrok — bu sezgi a’zolariga ta’sir etayotgan predmet va hodisalarning bosh miya po‘stlog‘ida yaxlit obraz tarzida aks etish jarayonidir. Mazkur psixik jarayon insonning tashqi muhitni anglashida, voqelikni adekvat qabul qilishida hamda ongli faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Idrok jarayonining buzilishi psixopatologiyaning asosiy simptomlaridan biri bo‘lib, turli ruhiy kasalliklarning klinik manzarasida muhim diagnostik belgi sifatida namoyon bo‘ladi. Psixopatologik nuqtayi nazardan idrok buzilishlari markaziy asab tizimining funksional yoki organik shikastlanishlari bilan bog‘liq holda yuzaga keladi. Ushbu buzilishlar tashqi olam predmet va hodisalarining noto‘g‘ri, buzilgan yoki reallikka mos bo‘lmagan tarzda qabul qilinishi bilan xarakterlanadi. Shu sababli idrok buzilishlari nafaqat alohida psixik simptom, balki inson ruhiy faoliyatidagi chuqur patologik o‘zgarishlarning ifodasi sifatida ham ilmiy va klinik jihatdan muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Idrok etish – bu sezgi organlarining retseptor qismiga bevosita ta’sir etish orqali atrofdagi narsalarni, voqea- hodisalarni ongda aks ettirilishi hamda



ma'lumotlarni qabul qilib, qayta ishlash jarayoni. Sezish jarayoni bilan birgalikda his qilish insonning tashqi dunyoda bevosita hissiy mo'ljalini ta'minlaydi. Agar inson sezgi orqali o'zini o'rab turgan narsa, voqea, hodisalarning alohida belgilarini ongida aks ettirsa, idrok etish orqali ularni butunligicha, barcha xususiyatlari bilan birgalikda yaxlit qabul qiladi. Idrokning muhim xususiyatlaridan biri barqarorligidir. Inson bir vaqtda idrok qilgan narsani o'z xotirasida saqlab qolish va uni qayta tiklash qobiliyatiga ega. Bir narsani ana shunday qayta tiklangan timsoli idrok jarayonining ajralmas qismi. Idrokning xususiyati ko'p jihatdan hissiy kechinmalarga ham bog'liq. Masalan, kishining ta'bi xira vaqtida tabiat manzaralari unga allaqanday so'niqdek ko'rinsa, xursand vaqtida u butunlay boshqacha ko'rinadi.

Idrok etishning buzilishi – bu ruhiy va asab kasalliklarida kuzatiladigan, tashqi olamni noto'g'ri qabul qilish yoki bor narsani ko'rmaslik bilan bog'liq patologik holatdir. Asosiy turlari gallyutsinatsiyalar, illyuziyalar va psixosensor buzilishlar hisoblanadi.

Illyuziyalar – real mavjud bo'lgan ob'ektlarni noto'g'ri idrok etish. Demak, gallyutsinatsiyadan farqli o'laroq, illyuziyada idrok etilayotgan narsalar mavjud, lekin ular noto'g'ri qabul qilinadi. Masalan, yerga tushib yotgan qora chopon uzoqdan xuddi uxlab yotgan itdek, do'ppi esa mushukdek tuyuladi. Illyuziyalar sog'lom odamlarda ham uchrab turadi. Masalan, qurulish bo'layotgan joyda yog'ochlar uzoqdan xuddi egri joylashgandek, eshik va derazalar qiyshiq qo'yilgandek bo'lib ko'rinadi.

Gallyusinatsiya – yo'q narsa va hodisalarni bordek idrok etish. Idrok etilgan yo'q obrazlar tashqi tasvirga ega bo'lib, ular borliqda real narsalar kabi o'rin oladi va shu tufayli bemor bularning rostligiga ishonadi, aslida yo'q narsalarni ko'rayotgan, eshitayotgandek bo'ladi. Gallyusinatsiyalar rangli yoki rangsiz, ba'zida bir rangli bo'ladi. Sohta gallyusinatsiyalar bemorga ko'rinayotgan narsalar, voqea-hodisalar sahnada va kino ekranida ko'rinayotganidek tuyuladi. Gallyutsinatsiyaning ko'ruv, eshituv va hid bilish kabi turlari mavjud.

Giperesteziya – me'yoriy holatlarda odatiy bo'lgan tashqi qo'zg'alishlarni qabul qilishning oshib ketishi. Odatdagi yorug'lik ko'zni qamashtiradi. Atrofgadi predmetlar ko'zga yaqqol tashlanadi. Tovushlar quloqda kar qiladigandek, eshik yopilishidagi tovush xuddi o'q otilgandek bo'ladi. Idish – tovoqlar chiqaradigan tovushlar chidab bo'lmaydigan darajada, kuchli eshitaladi. Hidlar juda o'tkir tuyuladi. Bu buzilishlar o'ta charchashda va o'tkir psixozlar boshlanishida, ongning g'ira-shiraligi holati rivojlanishida namoyon bo'ladi.

Gipesteziya – giperesteziyaga qarama-qarshi bo'lgan jarayondir. Tashqi qo'zg'alishlarni qabul qilishning susayishi bilan tavsiflanadi. Atrof-muhit



xuddi tumandagidek, noaniq buyumlar rangsiz, noaniq shaklda bo'lib qoladi. Ovozlar bo'g'iqlashadi. Atrofdagi tovushlar jarangdorligini yo'qotadi va farqsiz bo'lib qoladi. Hammasi harakatsiz qotib qolgandek tuyuladi.

Depersonalizatsiya – o'z shaxsining idrok etishning buzilishi, shaxs barcha ruhiy xususiyatlarining begonalashuvi. Bunda bemorlarga fikri, tafakkuri o'zgargandek, avalgidan boshqacha bo'lib qolgandek tuyuladi. Bemorlar o'zlarini o'zgarib qolganliklari boshqa odam bo'lib qolganliklari haqida gapiradilar. Ba'zi hollarda shaxsning parchalanishi, ikkilanish hissi kuzatiladi.

Derealizatsiya – o'rab turgan bog'liqni buyumlar shakli, oraliq masofa va vaqtga nisbatan idrok etishning buzilishi. Bu holatda bemorga olam o'zgarib qolgandek, uzoqlashgandek tuyuladi, atrof noaniq, parda bilan o'ralgandek ko'rinadi. Ba'zida bemorga o'zi yashab turgan joy, atrofdagi odamlar begonadek ko'rinadi.

Idrok buzilishlarini davolash, avvalo, ushbu holatni keltirib chiqarayotgan asosiy sababni aniqlashga bog'liqdir. Davolash jarayonida kompleks yondashuv muhim ahamiyat kasb etadi. Idrok buzilishlarini davolashda dori-darmon terapiyasidan keng foydalaniladi. Xususan, gallyutsinaysiya va boshqa og'ir psixopatologik simptomlarda antipsixotik preparatlar qo'llanadi. Depressiv va xavotirli holatlarda esa antidepressant hamda tinchlantiruvchi vositalar tavsiya etilishi mumkin. Biroq dori vositalari faqat mutaxassis shifokor nazorati ostida qo'llanishi kerak. Psixoterapiya ham davolashning muhim tarkibiy qismi hisoblanadi.

Xulosa qilib aytganda, idrok inson psixik faoliyatining eng muhim jarayonlaridan biri hisoblanadi. Idrok yordamida inson atrof- muhitdagi voqea va hodisalarni anglaydi, baholaydi hamda ularga mos ravishda munosabat bildiradi. Shu sababali idrokning buzilishi insonning ruhiy holati, xulq – atvori va ijtimoiy faoliyatiga salbiy ta'sir ko'rsatadi.

Idrok buzilishlarini o'z vaqtida aniqlash va mutaxassis yordamiga murojaat qilish ruhiy kasalliklarning og'irlashib ketishining oldini olishda muhim ahamiyatga ega.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Sadock's Synopsis of Psychiatry Kaplan, H. I., & Sadock, B. J. (2015). Synopsis of psychiatry: Behavioral sciences/clinical psychiatry (11th ed.). Wolters Kluwer.
2. Oxford Textbook of Psychiatry Gelder, M., Andreasen, N., Lopez-Ibor, J., & Geddes, J. (2012). New Oxford textbook of psychiatry (2nd ed.). Oxford University Press.



3. Clinical Psychopathology Fish, F. (2010). Fish's clinical psychopathology: Signs and symptoms in psychiatry (3rd ed.). Gaskell.
4. Patopsixologiya Zeigarnik, B. V. (2008). Patopsikhologiya. Moskva: Akademiya.
5. Umumiy psixologiya G'oziev, E. G. (2002). Umumiy psixologiya. Toshkent: O'qituvchi.
6. Tibbiy psixologiya Karimova, V. M. (2018). Tibbiy psixologiya. Toshkent: Tafakkur Bo'stoni.
7. Psixiatriya Po'latova, F. A., & Axmedov, R. R. (2021). Psixiatriya. Toshkent: Yangi asr avlodi.